



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



## FONETIKADA ASPEKT TUSHUNCHALARI

**O.To'xtasinova**

*Qdu o'zbek tili kafedrasi dotsenti*

**M.Xrojiddinova**

*Qdu O'zbek tili kafedrasi o'qituvchi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada fonetika fanining to'rt aspekti yoritilgan. Har bir aspektning o'ziga xos vazifalari va tilshunoslikdagi ahamiyati tahlil qilingan. Maqola nutq tovushlarini chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi hamda fonetikaning nazariy va amaliy jihatlarini tushunishga ko'maklashadi. Material tilshunoslari, filologiya yo'nalishidagi talaba va o'qituvchilar uchun foydalidir.*

**Kalit so'zlar:** *Fizik akustik aspekt, tovushning balandligi, tovushning kuchi, tovush cho'ziqligi, anatomik fiziologik aspekt, eshtib his etish aspekti(perseptiv aspekt), anatomik aspect*

**Annotation :***This article highlights the four aspects of the science of phonetics . The specific functions and linguistic significance of each aspect are analyzed .*

*The article serves to provide a deeper understanding of speech sounds and helps to grasp both the theoretical and practical dimensions of phonetics . The material is useful for linguists , students , and teachers in the field of philology .*

**Keywords :***Physical-acoustic aspect , pitch of sound , intensity of sound , duration of sound , anatomical-physiological aspect , auditory-perceptual aspect . anatomical aspect*

**Kirish.** Tabiatda turli tovushlar mavjud.Xususan fonetik tovush boshqa tovushlardan o'rganish darajasining ahamiyatliligi bilan ajralib turadi. Tilning tovush tomoni ancha murakkab hodisadir: a) har qanday tovushning fizik-akustik tabiatni bor; b) har qanday nutq tovushining biologik asosi (nutq a'zolarining harakati va holati bilan bog'liq jihatlari) mavjud; d) har qanday nutq tovushlari talaffuz etiladi va eshitiladi. Fonetik birlklarning ana shu jihatlarini o'rganish fonetikaning fizik-akustik, anatomik-fiziologik, perceptiv va lingvistik-funksional aspektlari deb qaraladi.

**Fizik–akustik aspekt.** Eksperimental fonetikaning bu aspekti fonetik birlklarning fizik tabiatini tadqiq qiladi. Fonetik birlklarning fizik tabiatiga tovushning balandligi, kuchi, tembri, cho'ziqligi kiradi. Tovushning ovoz, shovqin, qo'shimcha (yordamchi) ton kabi komponentlari ham fizik-akustik omillar sanaladi.

Nutq tovushining muhim xususiyatlaridan biri uning eshitilish tomonidir. Fonema vogelanishidagi ana shu eshitila olinish tomon akustika deyiladi. Fonetik akustikada tovushning ikki muhim belgisi – **tovushning sifat belgisi** va **tovushning miqdor belgisi** o'rganiladi.

**Tovushning sifat belgilari** deyilganda **tovushning balandligi**, **tovushning kuchi** va **tovush tembri** tushuniladi. Bu akustik elementlar o'zaro bir-biridan farqlanadi. Tovushning





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



balandligi tebranishning miqdoriga, zichligiga bog'liq bo'ladi. Ma'lum vaqt birligi (soniya, daqiqa) ichida tebranishlarning soni qancha ko'p bo'lsa, tovush ham shuncha baland bo'ladi. Aksincha tebranish oz bo'lsa, past chastotali tovush yuzaga keladi. Tebranishning ko'p yoki oz bo'lishligi tebranishning oralig'iga bog'liqdir. Tebranish oralig'i qancha qisqa bo'lsa, tebranish shuncha ko'p va tez ; tebranish oralig'i qancha uzun bo'lsa, tebranish shuncha kam va sekin bo'ladi. Tebranish ko'p va tez bo'lganda tovush ingichka va baland, kam va sekin bo'lganda esa tovush yo'g'on va past chiqadi. Tebranish miqdori gers (gs) bilan o'lchanadi. Gers tebranishning sekundga nisbatan o'lchovini belgilaydi (1 gs bir sekundda bir tebranishga barobar). Inson 15 gersdan 15000 gersgacha bo'lgan tebranish natijasida vujudga kelgan tovushlarni bemalol eshitib his qila oladi. 15 gersdan kam yoki 15000 gersdan yuqori bo'lgan tovushlarni umuman eshitib bo'lmaydi. Juda sokin yoki o'ta tez tebranishga ega bo'lgan bunday tovushlarni eshitib, sez olish uchun maxsus apparatlardan foydalilaniladi.

**Tovushning kuchi** o'pkadan chiqayotgan havo oqimining nutq a'zolariga qanday kuch bilan urilishiga bog'liq bo'ladi. Bunda tebranishning shiddati muhim rol o'ynaydi. Tebranish darajasi qanchalik katta bo'lsa, tovush ham shunchalik kuchli chiqadi. Tovush kuchi tebranish amplitudasi bilan aniqlanadi. Amplituda ko'lami katta va keng bo'lsa, tovush kuchli; amplituda ko'lami kichik va past bo'lsa, tovush kuchsiz bo'ladi. Tovush kuchi dinamik urg'uga ega bo'lgan tillar uchun xarakterlidir. Bunday tillarda urg'uli bo'g'in urg'usiz bo'g'lnarga nisbatan kuchli zarb bilan talaffuz etiladi. Urg'uli bo'g'indagi unli kuchli, urg'usiz bo'g'indagi unli esa kuchsiz tovush sanaladi. Masalan, olma-olma, bosma-bosma, tugma-tugma so'zlarini bir-biridan farqlashda urg'uli va urg'usi bo'g'lnlardagi tovushlarning kuchiga asoslaniladi. SHuningdek, suvchi, paxtakor, mehnatkash so'zlarida urg'u oxirgi bo'g'inga tushganligi uchun bu bo'g'lnlardagi i, o, a unlilari kuchli tovushlar hisoblanadi. Kelma so'zida urg'u birinchi bo'g'inga , afsuski so'zida esa ikkinchi bo'g'inga tushgan, shu bois bulardagi e, u unlilari kuchli tovushlardir, urg'u tushmagan bo'g'lnlardagi tovushlar esa kuchsizdir.

**Tovush tembri** asosiy ton bilan yordamchi ton (oberton)larning birikishidan yuzaga keladi. Nutq tovushlarining tembri tovush paychalarida hosil bo'ladigan asosiy tonga hamda qo'shimcha ohanglar (obertonlar)ga, shuningdek, rezonator vazifasini bajaruvchi og'iz va burun bo'shliqlarining hajmi va shakliga bog'liq bo'ladi. Tovushlar tembri jihatidan bir-biridan o'zaro farq qiladi. Tembr tufayli bir kishining nutqi boshqa kishinikidan ajratiladi, farqlanadi. Tovush tembriga qarab kishilarni ovozidan ham tanib olish mumkin bo'ladi. Demak, nutq tovushlarining hosil bo'lishida tovush tembrining ham alohida o'rni bor.

Nutq tovushlarining akustik belgilaridan yana biri uning **miqdor belgisidir**. Tovushning cho'ziqligi yoki qisqaligi **miqdor belgisi** deb yuritiladi. Bu xususiyat unlilarga xos bo'lib, muayyan vaqt davomida unlilarning cho'ziq va qisqa aytishini ifoda qiladi. Tovushning cho'ziqlik darajasi tebranish davom etgan vaqt bilan aniqlanadi va u millisekund bilan o'lchanadi. Tebranish uzoqroq vaqt davom etsa cho'ziq unli, qisqa davom qilsa qisqa unli hosil bo'ladi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Tovushning cho'ziqligi ikkiga – **fonetik cho'ziqlik va fonologik cho'ziqlikka** bo'linadi. Fonetik cho'ziqlik ma'no ajratishga xizmat qilmaydi. O'zbek tilida har bir unli o'zining cho'ziq variantiga ega. Masalan, ona so'zidagi o'unlisiga nisbatan oshiq (ishqli) so'zidagi o'unli o'rtacha 60-70 foiz cho'ziqroq talaffuz qilinadi. Huddi, shuningdek, imon, me'mor, a'lo, surat, mo''tabar so'zlaridagi i, e, a, u, o' unlilari bir, kel, zar, un, o't so'zlaridagi unlilarga qaraganda cho'ziq aytildi. Ta'kidlash zarurki, o'zlashgan so'zlarda har bir unlining cho'ziq muqobili mavjuddir. Bu cho'ziqlik o'zbek tilida talaffuz qilinmaydigan arabcha ayn, hamza (yozuvda – tutuq belgisi) hisobiga ayniqsa ko'p qo'llanadi: ma'buda, me'yor, ne'mat, e'zoz, e'lon, e'tibor, mo''jiza, mo''tadil, sho''ba, shu'la kabi.

Unlillardagi cho'ziqlik xususiyati o'zbek shevalarida ham ko'p uchraydi. CHunonchi, Buxoro guruhi shevalarining "ikki tilli" shevasida o, i, o' unlilari oila, aroyish, olim, bo'ri, minbar, mirob, lalmi, o'ra, o'moch so'zlarida birmuncha cho'ziq talaffuz qilinadi. Xorazm o'g'uz shevalarida ham cho'ziq i, e, a, o, u, o' unlilari mavjuddir. Masalan, i:ch (ich), di:sh (tish), i:z (iz), geli:n (kelin), i:n (in), chi:vin (pashsha), ge:ja (kecha), ela:t (elat), a:j' (achchiq), na:va (nov), sa:zan (sazan), a:g'a (aka), ya:t (yot, begona), a:ch (och-och qolmoq), a:la (ola, olachipor), a:g'yl (og'il), sa:ch (soch), sa:z (soz; musiqa, ohang), du:z (tuz-tekislik, yalanglik), du:sh (tush), du:tar (dutor), bu:day (bug'doy), ayu: (ayiq), o:jaq (o'choq), o:din (o'tin), go:k (ko'k) so'zlarida qayd qilingan unlilar cho'ziq aytildi.

Fonetik cho'ziqlik barcha tillirga xos bo'lib, nutq jarayonida ko'p uchraydi. Bu cho'ziqlik tildagi urg'uga, tovushning so'zdagi o'rni (pozisiyasi)ga hamda bir qancha fonetik hodisalarga bog'liq bo'ladi.

**Anatomik-fiziologik aspekt.** Fonetikaning bu aspekti fonetik birliklarning biologik asosini – inson organizmidagi ayrim a'zolarning nutq tovushlarini hosil qilishdagi rolini, ularning tuzilishi va faoliyatini o'rganadi.

Nutq tovushlarining biologik asosini quyidagi turlarga bo'lish mumkin: 1) nutq a'zolarining anatomiysi; 2) nutq a'zolarining fiziologiyasi; 3) nutq a'zolarining ijro kechimi.

1. Nutq a'zolarining anatomiysi deyilganda shu a'zolarning shakli, tuzilishi, o'rni nazarda tutiladi. Bunday a'zolar quyidagi apparatlarga birlashadi:

**Nafas apparatusi** o'pka, bronx va traxeya (nafas yo'li) dan iborat. O'pka juda ko'p miqdordagi eng mayda pufakchalar yig'indisidan tarkib topgan bo'lib, ularni nozik qon tomirchalari o'rab turadi. O'pkaning ikki yonini bir juft bronxlar tashkil etadi. Bronxlarning muskullari bo'lib, bu muskullar bronxlarning torayishi va kengayishi uchun xizmat qiladi. O'pka ko'krak qafasining kengayib, torayib turishi natijasida kengayadi yoki torayadi. Ko'krak qafasi esa qovurg'alarning ko'tarilishi va diafragmaning pastga tushishi orqasida kengayadi. Bir minutda 16-20 marta nafas olinadi va shuncha nafas chiqariladi. Lekin shuni aytish kerakki, fiziologik nafas olish bilan nutq jarayoni (protsessi)da nafas olish bir xil emas. Nutq protsessida nafas olish nafas chiqarishga nisbatan tez, havo sarf qilishning hajmi fiziologik nafas chiqarishga qaraganda bir necha marta ko'p bo'ladi va u so'zlovchi shaxsning irodasi bilan boshqarilib turiladi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Nafas apparati tarkibiga kiruvchi organlar havoning manbai va havo o'tkazuvchidir. Bu organlar o'pkadagi havo oqimini bo'g'iz, og'iz, burun bo'shliqlariga etkazib berish vazifasini bajaradi.

**Bo'g'iz bo'shlig'i** murakkab tuzilgan bo'lib, unda ovoz hosil bo'ladi. Bo'g'iz muskullar orqali bir-biriga bog'langan beshta tog'aydan: halqasimon, qalqonsimon, ikkita cho'michsimon va bo'g'iz tog'aylaridan tarkib topgan. Tog'aylar tovush psychalarining harakatini tartibga soladi.

**Tovush psychalari** tomoqda kekirdak yuqorisida joylashgan bo'lib, ularning har biri ikkita muskulning elastik qobig'idan iborat. Tovush psychalari faol nutq a'zolaridan sanaladi. Tovush psychalari ishtirokisiz ovoz chiqarib bo'lmaydi. Nutq tovushlarini hosil qilishda tovush psychalari bir-biriga yaqinlashib taranglashishi va titrashi yoki tebranmasligi mumkin. Unli tovushlar (i, e, a, u, o', o)ning yuzaga kelishida tovush psychalari harakatga keladi. Undosh tovushlar tovush psychalarining ishtirokiga ko'ra ikkiga-jarangli va jarangsizlarga bo'linadi. O'pkadan chiqqan havo oqimining tovush psychalarini tebratishi, titratishi natijasida jarangli undoshlar (b, d, g, z, j, g...) hosil bo'ladi. Jarangli undoshlar talaffuzida tovush psychalari oralig'i torayib, tortiladi. Jarangsiz undoshlar (p, t, k, ch, f, s, sh...)ning yuzaga kelishida tovush psychalari bir-biriga yaqinlashmaydi. Ularning oralig'i ochiq bo'lib, harakatga kelmaydi va tebranmaydi. Sonorlar (m, n, ng, l, r)ning paydo bo'lishida tovush psychalari sal tebranadi, nafas yo'li torayadi. Anglashiladiki, unli tovushlar, jarangli va sonor undoshlardagi ovoz tovush psychalarining bo'g'iz bo'shlig'ida tebranishi natijasida vujudga keladi.

**Og'iz bo'shlig'i.** Og'iz bo'shlig'ini burun bo'shlig'idan tanglay ajratib turadi. Bo'g'iz orqali o'tgan havo oqimi og'iz bo'shlig'iga keladi. Og'iz bo'shlig'i shovqin manbai hisoblanadi. Havo oqimi nutq a'zolarining biror erida to'siqqa uchraydi va shovqin hosil qiladi. Og'iz bo'shlig'i tovush hosil qilishda bosh rezonatorlik, ya'ni tovush kuchaytirgich vazifasini bajaradi. Og'iz bo'shlig'ining hajmi va shakli nutq a'zolarining ta'siri natijasida har xil holatga kelishi mumkin. SHu bilan birga og'iz bo'shlig'idagi a'zolar (organlar)ning turlicha harakati xilma-xil tovushlarning shakllanishiga yordam beradi.

Og'iz bo'shlig'ida til, tanglay, kichik til, pastki jag', lab va tishlar joylashgan.

**Til**-og'iz bo'shlig'idagi eng asosiy va harakatchan nutq a'zosi sanaladi. Til muskullardan tashkil topgan. Bu muskullar avvalo orqa tomonga, so'ng yuqori va old tomonga borib-kelib turadi va tilni cho'zish, kichraytirib ichga tortish, bukish kabi turli fiziologik, artikulyasion harakatlarni bajarish uchun xizmat qiladi.

Nutq tovushlarining paydo bo'lish o'rni hisobga olingan holda til uch qismga ajratiladi: til oldi, til o'rtasi, til orqasi. Undosh fonemalarning bir turi bo'l mish til undoshlari mana shu xususiyatga ko'ra: 1) til oldi undoshlari (t, d, j, z...), 2) til o'rta undoshi (y), til orqa undoshlari (g, k, ng...) ga bo'linib o'rganiladi. Unlilar tasnifida ham tilning harakati va holatiga asosiy diqqat qaratiladi. Bunda tilning yotiqligi va tik harakatiga e'tibor beriladi. Unlilar tilning yotiqligi harakatiga ko'ra til oldi va til orqa; tik yo'naliishiga ko'ra yuqori (tor), o'rta (o'rta keng), quyi (keng) unlilarga bo'linadi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



**Tanglay** ikki qismidan iborat: qattiq tanglay va yumshoq tanglay. Yuqori jag' suyagining oldingi bir qismi qattiq tanglaydir. Uning orqa muskul tomonini yumshoq tanglay tashkil etadi. Qattiq va yumshoq tanglay til bilan birgalikda til oldi undoshlari (t, d, j, ch...), til o'rta (y), sayoz til orqa (g, k, ng), chuqur til orqa (q,g', x) undoshlarining paydo bo'lishida ishtirok qiladi.

**Kichik til** og'iz bo'shlig'inining yuqorisida, yumshoq tanglayning oxirida joylashgan. U og'iz bo'shlig'inining orqa chegarasi hisoblanadi. Kichik til burun tovushlari (m, n, ng) va chuqur til orqa undoshlari (q, g', x)ning hosil bo'lishida qatnashadi.

**Pastki jag'** faol nutq a'zolaridan biridir. Og'iz bo'shlig'inining asosini tashkil etuvchi pastki jag' suyaklari jag'ni quyiga, oldinga va yon tomonlarga harakat qildirish imkonini beradi. Og'iz bo'shlig'i hajmining o'zgarishi-kengayishi yoki torayishi pastki jag'ning harakatiga bog'liqdir. Unlilar tasnifida—ularni tor, o'rta, keng unlilarga bo'linishida tilning ko'tarilishi va tushishi bilan bir qatorda pastki jag'ning ko'tarilib tushishi ham muhim rol o'ynaydi. Masalan, i, u unlilarining talaffuzida pastki jag' yuqoriga ko'tariladi va og'iz tor ochiladi. A, o unlilarining aytishida pastki jag' quyi tomon tushadi va buning natijasida og'iz keng ochiladi. Til oldi unlilari (i, e, a)ni hosil qilishda pastki jag' til bilan birgalikda oldinga siljisa, til orqa unlilari (u, o', o)ni yuzaga keltirishda esa orqa tomon harakat qiladi. L, n undoshlarining talaffuzida pastki jag' yon tomonga harakatlanadi. Pastki jag'ning harakati labga ham ta'sir qiladi. Jag'ning ko'tarilib-tushishi tufayli pastki lab tez harakat qiladi va ustki labga borib tegadi.

**Lablar** tovushlarning yuzaga kelishida faol ishtirok qiladi. Ayrim undoshlar (b, p, m) lablarning o'zaro bir-biri bilan qattiq jipslashishidan hosil bo'ladi. Ikki labning to'qnashuvidan paydo bo'lgan bunday tovushlar lab-lab undoshlari deb aytildi. Bundan tashqari, undoshlar pastki labning yuqorigi tish uchlariga tegishidan yuzaga kelishi mumkin. V, f undoshlari shunday tovushlardir. Bular lab-tish undoshlari nomi bilan yuritiladi. Unlilar tasnifida ham labning harakati va holati muhim mezon (o'lchov) bo'lib hisoblanadi. Labning ishtirokiga ko'ra unlilar ikkiga —lablangan va lablanmagan unlilarga ajratiladi. Lablarning oldinga tomon harakat qilishi, bir-biriga yaqinlashib, cho'chchayishi va dumaloq holatga kelishi natijasida lablangan unlilar (u, o', o) hosil bo'ladi.

**Tish** tovush hosil qilishda faol rol o'ynamaydi. Lekin shunday bo'lsa-da , tish faol nutq a'zolarining yaqinlashishi yoki jipslashishi uchun xizmat qiladi. CHunonchi, lab-tish undoshlari v, f pastki labning ustki qator tishlarga tegishidan hosil bo'ladi. Til oldi undoshlaridan d, t, z, s til uchining yuqorigi tishlarga borib qadalishidan yuzaga keladi.

**Burun** nofaol nutq a'zosidir. U tovushning hosil bo'lishida qo'shimcha rezonatorlik vazifasini bajaradi. Yumshoq tanglay pastga tushib, kichik til oldinga surilsa, og'iz bo'shlig'idan o'tadigan havo oqimining yo'li to'siladi va u burun bo'shlig'idan erkin o'tadi. Buning natijasida burun tovushlari (m, n, ng) yuzaga keladi. Burun tovushlarining hosil bo'lishida havo oqimi qisman og'iz bo'shlig'idan ham o'tadi. Burun undoshlarining talaffuzida ikki lab, til va tanglayning old yoki orqa qismlari bir-birlari bilan to'qnashadi, yaqinlashadi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



Ko'rinaridiki, nutq tovushlarining yuzaga kelishida barcha nutq a'zolari qatnashadi. Lekin ularning faolligi bir xil emas. SHu jihatdan nutq a'zolari ikkiga: **faol nutq a'zolari va kamfaol nutq a'zolariga** bo'linadi. Faol nutq a'zolariga til, kichik til, lablar, yumshoq tanglay, pastki jag' va tovush paychalari kiradi. Yuqori jag', qattiq tanglay, tish va burun bo'shlig'i kamfaol nutq a'zolaridir.

SHunday qilib, yuqorida tasvirlab o'tilgan nutq apparatining qismlari odam anatomiyasi va fiziologiyasining bir qismi sanaladi. Lekin bu mexanizmlarning harakatini miya bevosita boshqarib turadi. Binobarin tovushni talaffuz qilish, uni sezib olish oliv nerv faoliyatining natijasi hisoblanadi.

2. Nutq a'zolarining fiziologiyasi deyilganda shu a'zolarning hayotiy kechimlari, muhit bilan bo'ladigan munosabatlari nazarda tutiladi. Bunday kechim bosh miya qobig'inining cho'zinchoq miya qismida joylashgan markaziy nerv sistemasi tomonidan boshqariladi. Bu sistema maxsus funksiyalarni bajaradigan nerv hujayralari to'plamidan iboratdir. Uning *brok markazi* deb nomlanuvchi turi nutqning yuzaga chiqishida qatnashadigan mushaklarni harakatga keltiradigan nerv markazi hisoblanadi. *Eshituv markazi* nomli turi esa eshitish a'zolaridan keladigan ta'sirni idrok etadigan nerv markazi sanaladi. Bu markaz faoliyatini o'rganish fonetikaning perceptiv (eshitib his etish) aspekti deb ham qaraladi. Demak, til vositasida amalga oshiriladigan nutqiy aloqa bevosita shu markazlar ishtirokida yuz beradi.

3. Nutq a'zolarining ijro kechimi - nutq a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi ishtiroki (harakati va holati). Bunday kechim, yuqorida aytib o'tilganidek, nutq a'zolarining fiziologiyasi bilan bog'liqdir. Odatda, nutq a'zolarining harakati va holati artikulatsiyani shakllantiradi. Artikulatsiya esa har bir millat vakillarida psixologik va fiziologik ko'nikmalarga tayanadi. Bu holat o'sha millat tilining *artikulatsiya bazasi* hisoblanadi. Shuning uchun bir millat vakilida boshqa millat tiliga xos artikulatsiya bazasi (psixologik va fiziologik ko'nikmalar) bo'lmasligi mumkin. Demak, tillar bir-biridan artikulatsiya bazalaridagi ba'zi belgilari bilan o'zaro farq qiladi.

Har qanday nutq tovushining artikulatsiyasi uch bosqichdan tarkib topadi: birinchi bosqich-*ekskursiya* (hozirlanish), ikkinchi bosqich – o'rta holat (ish holati), uchinchi bosqich-*rekursiya* (talaffuzning qaytishi). Nutq jarayonida bu bosqichlarning chegarasi mavhumlashadi: odatda, bir tovushning artikulatsiyasi nihoyasiga etmay, ikkinchi tovush ekskursiyasi boshlanadi, natijada tovushlar bir-biriga dinamik ravishda ulanib, ular orasidagi talaffuz chegaralari sezilmas holga keladi. Bunday chegaralarni yozuvda (harflar misolida) aniq sezish mumkin.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



**Izoh.** 1) nafas apparati tovush hosil qilish uchun kerak bo'lgan havo oqimini etkazib beradi; 2) bo'g'iz (hiqildoq) ovoz hosil qiladi; 3) halqum, og'iz bo'shlig'i tovushni shakllantiradi; 4) burun bo'shlig'i qo'shimcha ton beradi.

**Eshitib his etish aspekti** (perseptiv aspekt). Fonetikaning bu aspekti fonetik birlıklarning eshitish a'zolariga ta'sirini his etish orqali so'zning ma'nosini yoxud gap va nutq mazmunini idrok qilish qonuniyatlarini o'rganadi.

Ma'lumki, inson tashqi dunyoni o'zining sezgi a'zolari orqali his etadi: ko'radi, eshitadi, sezadi. Fonetik birliklar ham moddiy-material hodisa sifatida insonning eshitish a'zolariga ta'sir qiladi, ammo bu ta'sir shunchaki moddiy hodisaning ta'sirigina emas, balki fonetik so'zning (ma'noga ega bo'lgan formaning) yoxud gapning ta'siri bo'ladi. Shuning uchun har qanday so'zni, so'z shaklini yoki gapni eshitganimizda, ongimizda shu birlıklarning ma'nosi yoki mazmuni, aniqrog'i, ma'no yoki mazmun obrazi gavdalanadi. Bunday his etish, idrok qilishsiz tilning birorta funksiyasi(nominativ funksiya, kommunikativ funksiya, emotiv funksiya va hokazolar) amalga oshirilmaydi.

**Lingvistik-funksional aspekt.** Fonetikaning bu aspekti fonetik birlıklarning til mexanizmidagi rolini, demak, tilning ijtimoiy mohiyatini belgilashdagi ahamiyatini o'rganadi. Tilshunoslikda fonetikaning bu aspekti *fonologiya* deb ataladi

**Xulosa.** Har bir aspekt o'ziga xos yondashuvni talab qiladi va ular o'zaro uyg'unlikda fonetik tahlilning mukammalligini ta'minlaydi. Tilshunoslikda bu aspektlarning chuqur tahlili nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki amaliy qo'llanmalarda ham katta ahamiyatga ega. Fonetikani to'liq anglash uchun bu to'rtta jihatni birgalikda o'rganish zarur. Umuman olganda, fonetikaning to'rt aspekti — fizik-akustik, anatomik-fiziologik, eshitib his etish, lingvistik-funksional bularning har biri tilni tushunish va o'rganishda muhim rol o'yndaydi

### Adabiyotlar:

1. Jamolxonov H.A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkeht.: O'zbekiton milliy ensiklopediyasi. 2013.
2. Sapayev Q. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -Toshkent.: 2009
3. Sayfullayeva.R., Mengliyev B., Boqiyeva G.H., Qurbonova.M. M., Yunusova.Z.Q., Abuzalova M.Q. Hozirgi ozbek adabiy tili. –Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: Universitet, 2006
5. Mirtojiev M. O'zbek tili fonetikasi. Toshkent, 1998.
6. Abdiazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. Toshkent, 1992.
7. Nurmonov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. Toshkent, 1990.

